Abstract. This article analyzes the role and importance of innovative management in solid waste processing enterprises in a comprehensive manner. Today, the problem of waste is considered relevant not only environmentally, but also economically and socially. Therefore, improving the efficiency of enterprises, rational use of resources and reducing the negative impact on the environment are considered as one of the important tasks by applying innovative approaches in the process of waste processing. The article will highlight the theoretical foundations of innovative management and highlight the priority of such areas as the introduction of new technologies in processing enterprises, digitization of production processes, implementation of energy-efficient methods and adaptation of enterprise activities to environmental criteria.

Key words: solid waste, waste recycling, innovation management, environmental safety, green economy, zero waste, recycling technologies, resource economy, waste sorting, recycled product, economic efficiency, environmental sustainability, public-private partnership.

Аннотация. В данной статье подробно проанализированы роль и значение инновационного менеджмента на предприятиях по переработке твёрдых отходов. В настоящее время проблема отходов актуальна не только в экологическом, но и в экономическом и социальном аспектах. Поэтому одной из важнейших задач рассматривается повышение эффективности деятельности предприятий за счёт применения инновационных подходов к переработке отходов, рационального использования ресурсов и снижения негативного воздействия на окружающую среду. В статье освещаются теоретические основы инновационного менеджмента и обозначаются приоритеты таких направлений, как внедрение новых технологий на перерабатывающих предприятиях, цифровизация производственных процессов, применение энергосберегающих методов и адаптация деятельности предприятия к экологическим критериям.

Ключевые слова: твёрдые отходы, переработка отходов, инновационный менеджмент, экологическая безопасность, зелёная экономика, нулевые отходы, технологии переработки, ресурсосбережение, сортировка отходов, переработанный продукт, экономическая эффективность, экологическая устойчивость, государственно-частное партнёрство.



KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida dunyo iqtisodiyotining barcha sohalarida innovatsiyalarni keng tatbiq etish tobora dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Insoniyatning ishlab chiqarish va iste'mol hajmlarining keskin ortishi, urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi hamda texnologik taraqqiyotning yuqori sur'atlari natijasida qattiq chiqindilar hajmi ham yildan yilga ko'paymoqda. Bu esa ekologik xavfsizlik, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish masalalarini yanada keskinlashtirmoqda. Shu o'rinda qattiq chiqindilarni qayta ishlash korxonalarining faoliyatini takomillashtirish, ularni samarali boshqarish hamda innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki chiqindilarni oddiygina yig'ib, poligonlarga tashlab qo'yish muammoni hal etmaydi, balki atrof-muhitni yanada ifloslantiradi. Shu sababli zamonaviy davrda chiqindilarni qayta ishlash, ularni iqtisodiy resursga aylantirish va ushbu jarayonni innovatsion menejment asosida boshqarish strategik zaruratga aylanmoqda.

Innovatsion menejment tushunchasi zamonaviy boshqaruv ilmidagi keng qo'llanilmoqda va u korxona faoliyatini yangicha yondashuvlar, texnologiyalar hamda boshqaruv uslublari asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Qattiq chiqindilarni qayta ishlash korxonalari misolida ushbu menejment turi alohida o'rin tutadi. Chunki chiqindilar masalasi bevosita ekologiya, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot va ijtimoiy barqarorlik bilan chambarchas bog'liqdir. Innovatsion menejment orqali korxona resurslardan samarali foydalanishi, chiqindilardan yangi mahsulot yoki energiya ishlab chiqarishi, ishlab chiqarish jarayonida energiya tejamkor usullarni qo'llashi hamda xalqaro ekologik talab va standartlarga javob beruvchi tizimlarni shakllantirishi mumkin. Natijada chiqindilarni qayta ishlash jarayoni nafaqat ekologik zarurat, balki iqtisodiy foyda manbai sifatida ham namoyon bo'ladi.

Jahon miqyosida chiqindilarni qayta ishlash sohasida innovatsion yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Masalan, rivojlangan davlatlarda doiraviy iqtisodiyot tamoyillari tatbiq etilib, chiqindilar ikkilamchi xomashyo sifatida qayta ishlab chiqarish jarayoniga qaytarilmoqda. "Nol chiqindi" konsepsiyasi asosida chiqindilarni poligonlarga chiqarish hajmi keskin kamaytirilmoqda. Qayta ishlash korxonalarida zamonaviy texnologiyalar — biogaz ishlab chiqarish uskunalari, chiqindilardan issiqlik energiyasi olish texnologiyalari, plastmassa va qog'ozni qayta ishlab yangi mahsulot yaratish usullari — keng joriy etilmoqda. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonlari, masofaviy monitoring tizimlari va chiqindilar oqimini boshqarishning elektron dasturlari ham innovatsion menejmentning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida ham chiqindilarni qayta ishlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mamlakatda aholi sonining o'sishi, shaharlashuvning tezlashuvi va ishlab chiqarish hajmining ortib borishi natijasida chiqindilar miqdori yil sayin oshib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, respublikada yiliga millionlab tonna maishiy va sanoat chiqindilari hosil bo'lmoqda. Agar ushbu chiqindilar ilmiy asosda boshqarilmasa, ular nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga ham sabab bo'ladi. Shu bois qattiq chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini innovatsion menejment asosida tashkil etish va rivojlantirish mamlakatning barqaror rivojlanish strategiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion menejmentning o'рни, avvalo, korxona faoliyatini tizimli boshqarishda namoyon bo'ladi. Chiqindilarni qayta ishlash korxonalarida an'anaviy boshqaruv usullari ko'plab muammolarga olib kelishi mumkin, chunki bu sohaga xos jarayonlar murakkab va o'ziga xosdir. Masalan, chiqindilarni yig'ish, saralash, qayta ishlash, tashish va ularni ikkilamchi xomashyo sifatida bozorga chiqarish jarayonlarida katta resurslar talab etiladi. Innovatsion menejment esa ushbu resurslarni optimal taqsimlash, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, texnologiyalarni yangilash va xodimlarni yangi bilim hamda ko'nikmalar bilan ta'minlash imkonini beradi. Natijada korxona samaradorligi oshadi, chiqindilar miqdori kamayadi va qo'shimcha iqtisodiy foyda yuzaga keladi.

Bundan tashqari, innovatsion menejment chiqindilarni qayta ishlash jarayonida ekologik xavfsizlikni ta'minlashning ham muhim vositasidir. Chiqindilarni noto'g'ri boshqarish natijasida havoga, suvga va tuproqqa chiqadigan zararli moddalarning miqdori ortadi, bu esa inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion texnologiyalar yordamida chiqindilarni qayta ishlash jarayonida zararli chiqindilarni kamaytirish, atmosferaga chiqadigan gazlarni filtrlash va xavfsiz utilizatsiya qilish imkoniyati yaratiladi. Shu tariqa innovatsion menejment nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik foyda ham keltiradi.

Qattiq chiqindilarni qayta ishlash korxonalarida innovatsion menejmentning ahamiyati investitsiyalarni jalb etish jarayonida ham namoyon bo'ladi. Chunki investorlar, odatda, zamonaviy texnologiyalar va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan loyihalarga ko'proq e'tibor qaratadilar. Innovatsion boshqaruv tizimiga ega bo'lgan korxonalar xalqaro grantlar, kreditlar va xususiy sarmoyalarni jalb etishda katta ustunlikka ega bo'ladi. Bu esa chiqindilarni qayta ishlash sohasini yanada kengaytirish, yangi korxonalar tashkil etish hamda qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qattiq chiqindilarni qayta ishlash korxonalarida innovatsion menejmentning o'rni va ahamiyatini o'rganish bo'yicha ilmiy adabiyotlar turli yondashuvlar va nazariy asoslarni o'z ichiga oladi. Jahon miqyosida atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindilarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish masalalari doimiy ravishda muhokama etilib kelmoqda. Shu bois bu sohada innovatsion yondashuvlar, boshqaruv tizimlari va texnologik yangiliklar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotchilar fikricha, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi, balki ekologik barqarorlikka ham erishishga yordam beradi.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, chiqindilarni boshqarish va ularni qayta ishlash jarayonida innovatsion boshqaruv konsepsiyasi turli shakllarda namoyon bo'ladi. Mahalliy olim va tadqiqotchilarimiz tomonidan qattiq chiqindilarni qayta ishlash va bu jarayonda innovatsion menejmentning ahamiyati turli jihatlarida tahlil etilgan. X. F. Madaminov va S. A. Saidova chiqindilar muammosini zamonaviy davrning eng dolzarb ekologik masalalaridan biri sifatida ko'rib, uni hal etishda chiqindilarni to'g'ri saralash, qayta ishlash darajasini oshirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurligini ta'kidlaydilar [1]. Ularning yondashuvi chiqindilar hajmini kamaytirish, ekologik xavflarning oldini olish va samarali boshqaruvni yo'lga qo'yishda innovatsion menejmentning hal qiluvchi o'rin tutishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Sh. U. Axmedov chiqindilarni qayta ishlashning huquqiy asoslarini tahlil qilib, barqaror ekologik rivojlanish uchun huquqiy mexanizmlar va innovatsion menejment uyg'unligining muhimligini qayd etadi [2]. Unga ko'ra, chiqindilarni ajratib yig'ish va qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashda asosiy vosita hisoblanadi. S. M. Ahmedov, Sh. O'. Abdunazarov va S. J. Xudoynazarov plastik chiqindilarni qayta ishlash masalasiga ilmiy e'tibor qaratib, piroliz texnologiyasining nazariy va amaliy jihatlarini yoritadilar. Ularning fikricha, piroliz usuli ekologik muammolarni kamaytirish bilan birga yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini berib, iqtisodiy samaradorlikni oshirishda innovatsion yondashuv sifatida muhim ahamiyatga ega [3]. U. S. Yusupov, O. N. Usmankulov, M. A. Ergashev va Z. B. Mamaisakova esa texnogen chiqindilarni qayta ishlashda innovatsion yondashuvlarni zarur deb hisoblaydilar. Ularning ta'kidlashicha, mineral resurslardan oqilona foydalanish nafaqat asosiy rudalar, balki chiqindilar va toshqollardan ham qo'shimcha foydali elementlarni ajratib olish imkonini beruvchi gidrometallurgiya texnologiyalarini joriy etishni talab qiladi [4]. Bu yondashuv resurslardan samarali foydalanish, chiqindilar miqdorini kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijlik olimlar va tadqiqotchilar tomonidan ham qattiq chiqindilarni qayta ishlash korxonalarida innovatsion menejmentning o'rni va ahamiyati turli jihatlarida tahlil etilgan. P. P. Palgunov va M. V. Sumarokov chiqindilarni qayta ishlashda innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash imkonini berishini ta'kidlaydi [5]. Ularning yondashuvi chiqindilarni ikkilamchi xomashyo sifatida qayta ishlash hamda boshqaruv strategiyasini yangilash zarurligini ochib beradi. Shu bilan birga, V. D. Bashirov va hammualliflari chiqindilarni oqilona boshqarish resurs tejash, ishlab chiqarish tannaxsini kamaytirish va poligonlarga tushadigan yukni qisqartirish orqali utilizatsiya jarayonini rentabelli biznesga aylantirish mumkinligini ko'rsatadi [6]. G. E. Savchenko esa chiqindilarni qayta ishlashni innovatsion biznes-modellar va davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirish muhimligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, bu yondashuv energiya tejamkorlikni kuchaytirib, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi [7]. D. B. Eddine va N. Harnan innovatsiyalar chiqindilarni nafaqat kamaytirish, balki ularni iqtisodiy qiymatga ega resurslarga aylantirish, energiya ishlab chiqarish va yangi mahsulot yaratishga xizmat qilishini qayd etadi. Ularning fikricha, innovatsion menejment barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikning hal qiluvchi omilidir [8].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlarda qattiq chiqindilarni qayta ishlash korxonalarida innovatsion menejmentning o'rni va ahamiyati keng yoritilgan. Turli nazariy yondashuvlar, xorijiy tajribalar va amaliy tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, bu sohada innovatsion menejment barqaror rivojlanish, iqtisodiy samaradorlik va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Innovatsion menejmentni samarali tashkil etish korxonalarga nafaqat chiqindilarni kamaytirish, balki yangi biznes imkoniyatlarini yaratish, xalqaro standartlarga moslashish va jamiyatda ekologik madaniyatni rivojlantirish imkonini beradi. Shu bois ushbu masala bugungi kunda nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki amaliy boshqaruvda ham markaziy mavzuga aylanib bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada qattiq chiqindilarni qayta ishlash korxonalarida innovatsion menejmentning o'rni va ahamiyatini o'rganishda ilmiy-nazariy hamda amaliy yondashuvlardan foydalanilgan. Tadqiqot jarayonida, avvalo, innovatsion menejment va chiqindilarni qayta ishlashga oid mavjud ilmiy adabiyotlar, xorijiy tajribalar hamda milliy qonunchilik hujjatlari tahlil qilingan. Ushbu yondashuv sohada qo'llanilayotgan nazariy qarashlarni aniqlash va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkonini bergan. Shuningdek, statistik ma'lumotlar va



amaliy tajribalarga asoslangan tahliliy metodlardan foydalanilib, chiqindilarni qayta ishlash jarayonining iqtisodiy va ekologik samaradorligi baholangan. Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil usuli qo'llanilib, rivojlangan davlatlarda amalda bo'lgan innovatsion menejment yondashuvlari mamlakatimiz sharoitidagi mavjud imkoniyatlar bilan solishtirilgan. Bundan tashqari, tizimli yondashuv asosida chiqindilarni qayta ishlash jarayonidagi boshqaruv mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi va samaradorligi o'rganilgan. Tadqiqot natijalari asosida korxonalarda innovatsion menejmentni joriy etishning ustuvor yo'nalishlari hamda ularning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ahamiyati aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash sanoati global ekologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy nuqtayi nazardan nihoyatda muhim tarmoqlardan biridir. Bunday korxonalar nafaqat chiqindilarni yig'ish va yo'q qilishni amalga oshiradi, balki resurslarni qayta tiklash, energiyaga aylantirish (waste-to-energy), xavfli chiqindilarni maxsus texnologiyalar asosida utilizatsiya qilish kabi xizmatlarni ham ko'rsatadi. Global tendensiyalar — jumladan, shaharlashuv, iste'mol hajmining ortishi, tartibga solish siyosatlarining kuchayishi va "aylanuvchi iqtisodiyot" (circular economy) tamoyillarining keng tarqalishi — ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun yuqori o'sish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash korxonalari chiqindilarni samarali boshqarish va qayta ishlash orqali ekologik barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. So'nggi yillarda ushbu korxonalarning atrof-muhit muammolarini yumshatishdagi hissasi hamda moliyaviy o'sish salohiyati ortib bormoqda. Bu esa investorlar va manfaatdor tomonlarning e'tiborini tobora ko'proq jalb qilmoqda. Urbanizatsiyaning kuchayishi, ekologik ongning yuksalishi hamda qat'iy ekologik me'yorlarning joriy etilishi natijasida chiqindilarni qayta ishlash sohasiga bo'lgan talab sezilarli darajada oshmoqda.

Quyidagi jadvalda chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash bo'yicha eng yirik kompaniyalar ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lib, ular faoliyatining tahlili orqali global tajriba va samaradorlik yo'nalishlari yoritib beriladi (1-jadval):

1-jadval. Chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash bo'yicha eng yirik kompaniyalarning ko'rsatkichlari [9]

Chiqindilarni qayta ishlash korxonalari	Qaysi davlatda joylashganligi	Kompaniyaning faoliyat turi	2024-yildagi iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari (%)	Kompaniyaning kapital qiymati (USD)
Waste Management, Inc.	AQSh	Umumiy chiqindi yig'ish, qayta ishlash, energiyaga aylantirish	8.0 %	87,47 mlrd USD
Republic Services, Inc.	AQSh	Chiqindilarni yig'ish, yo'q qilish, qayta ishlash	6.5 %	63,53 mlrd USD
Waste Connections, Inc.	AQSh / Kanada	Chiqindi yig'ish, qayta ishlash	7.0 %	44,04 mlrd USD
Veolia Environnement S.A.	Fransiya	Atrof-muhit, chiqindilarni boshqarish, suv va energiya	5.0 %	25 mlrd USD
SUEZ Group	Fransiya	Chiqindilarni yig'ish, qayta ishlash, ekosistem xizmatlari	4.5 %	15 mlrd USD
Clean Harbors, Inc.	AQSh	Xavfli chiqindilar, sanoat chiqindilari	6.0 %	7-9 mlrd USD
Stericycle, Inc.	AQSh	Tibbiy chiqindilar, xavfli chiqindilar	5.5 %	5 mlrd USD
Remondis SE & Co. KG	Germaniya	Chiqindi yig'ish, qayta ishlash, resurs tiklash	5.0 %	12 mlrd USD
Biffa Group	Buyuk Britaniya	Chiqindi yig'ish, qayta ishlash, yo'q qilish	5.5 %	8 mlrd USD
Covanta Holding Corporation	AQSh	Chiqindilarni yoqish + energiya (Waste-to-energy)	4.0 %	5 mlrd USD



Yuqoridagi jadval ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash sohasida eng yirik kompaniyalar iqtisodiy barqarorlik va ekologik samaradorlikni uyg'unlashtirgan holda faoliyat yuritmoqda. Masalan, Waste Management, Inc. (AQSh) 2024-yilda 8 % o'sish ko'rsatib, kapital qiymati 68 mlrd USD ga yetgani bilan bozorda yetakchilik qilmoqda. Republic Services, Inc. (AQSh) esa 7 % o'sish bilan 45 mlrd USD kapital qiymatini saqlab, ikkinchi o'rinni egallagan. Yevropada Veolia Environnement (Fransiya) 6 % o'sish va 20 mlrd USD kapital qiymati bilan, SUEZ Group (Fransiya) esa 5 % o'sish va 15 mlrd USD kapital qiymat bilan global miqyosda muhim o'rin tutmoqda. Shu bilan birga, Remondis (Germaniya) 4,5 % o'sish va 10 mlrd USD, Biffa Group (Buyuk Britaniya) 4 % o'sish va 3,5 mlrd USD kapital qiymat bilan mintaqaviy bozorda ustunlik qilmoqda. Covanta (AQSh) chiqindilarni energiyaga aylantirish sohasida yetakchi bo'lib, 4 % o'sish va 2,5 mlrd USD kapital qiymat ko'rsatgan, Stericycle (AQSh) esa xavfli chiqindilarni utilizatsiya qilishda 3,5 % o'sish bilan 4,2 mlrd USD kapital qiymatga ega. Cleanaway (Avstraliya) 3,8 % o'sish va 6 mlrd USD, Waste Connections (AQSh/Kanada) esa 6,5 % o'sish va 36 mlrd USD kapital qiymat bilan mintaqaviy yetakchilikni saqlab qolmoqda.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni anglatadiki, kompaniyalar o'sish sur'atlarini barqaror saqlab qolish bilan birga chiqindilarni qayta ishlash, ularni energiyaga aylantirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash orqali global yashil iqtisodiyot rivojiga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Chiqindilarni qayta ishlash korxonalarida innovatsion menejment ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy natijalarni yaxshilaydi. U texnologiyalarni yangilash, boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish, resurslardan tejamkor foydalanish, marketingni rivojlantirish hamda aholining faol ishtirokini ta'minlash kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Masalan, dastlabki saralash jarayonida innovatsion yondashuv qayta ishlash samaradorligini belgilasa, raqamli texnologiyalar chiqindilar oqimini nazorat qilib, ishlab chiqarishni optimallashtiradi va energiya olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) xarajatlarni kamaytirib, raqobatbardoshlikni oshiradi. Xodimlarni yangi texnologiyalarga moslashtirish hamda aholining chiqindilarni to'g'ri saralashdagi ishtirokini kengaytirish esa umumiy natijadorlikni kuchaytiradi.

Quyidagi jadvalda innovatsion menejmentning asosiy qo'llanish yo'nalishlari va ularning amaliy natijalari yoritilgan (2-jadval):

2-jadval. Innovatsion menejmentning asosiy qo'llanish usullari va ularning amaliy natijalari¹

Innovatsion menejment usuli	Mazmuni	Amaliy natijasi
Chiqindilarni dastlabki saralash tizimini joriy etish	Maxsus konteynerlar va texnologiyalar orqali chiqindilarni turkumlash	Qayta ishlash samaradorligi oshadi, resurs tejraladi
Raqamli monitoring tizimlari	IoT va sensorlar orqali chiqindilar oqimini nazorat qilish	Chiqindilarni yig'ish va tashishda optimallik, xarajatlarni kamaytirish
Sun'iy intellekt va big data	Ma'lumotlarni tahlil qilib resurslardan oqilona foydalanish	Ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi, strategik rejalashtirish yaxshilanadi
Energiya ishlab chiqarish texnologiyalari	Chiqindilarni yoqish yoki biogaz olish orqali energiya ishlab chiqarish	Muqobil energiya manbalari ko'payadi, ekologik yuk kamayadi
Davlat-xususiy sheriklik	Loyihalarda davlat va biznes hamkorligi	Investitsiyalar jalb qilinadi, barqarorlik ta'minlanadi
Xodimlar malakasini oshirish	Trening va o'quv dasturlari orqali bilim va ko'nikmalarni yangilash	Innovatsion texnologiyalarni tezroq o'zlashtirish
Aholini jalb qilish va rag'batlantirish	Ta'lim kampaniyalari, bonus tizimlari, ijtimoiy loyihalar	Chiqindilarni to'g'ri saralash madaniyati shakllanadi
Marketing strategiyalarini joriy etish	Qayta ishlangan mahsulotlarga bozor yaratish	Sotuv hajmi oshadi, iqtisodiy foyda ko'payadi
Ekologik standartlar va sertifikatlash	Xalqaro talablarga mos hujjatlashtirish	Raqobatbardoshlik ortadi, eksport imkoniyatlari kengayadi
Logistika tizimini optimallashtirish	Chiqindilarni yig'ish va tashishda samarali yo'nalishlar	Yo'l xarajatlari kamayadi, vaqt tejraladi

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan innovatsion menejment usullari qattiq chiqindilarni qayta ishlash korxonalari uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ularning har biri alohida ko'rinishda samarali bo'lsa-da, ular birgalikda qo'llanilganda yanada yuqori natijalarga erishish mumkin. Avvalo, chiqindilarni dastlabki saralash tizimini joriy etish jarayonning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Chunki chiqindilar sifatli saralanganda qayta ishlash jarayoni ham

¹ Muallif tomonidan tayyorlandi



samarali kechadi, resurslardan maksimal darajada foydalanish imkoniyati yaratiladi. Bu esa iqtisodiy foyda bilan bir qatorda ekologik yukni kamaytirishga ham xizmat qiladi.

Raqamli monitoring tizimlari va sun'iy intellektdan foydalanish korxonalar faoliyatini zamonaviy talablarga moslashtiradi. Sensorlar yordamida chiqindilar oqimini nazorat qilish, transport vositalari uchun optimal yo'nalishlarni tanlash xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Big Data texnologiyalari yordamida esa ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish orqali strategik rejalashtirish samaradorligi oshadi, korxonalar bozor talabini aniq prognoz qila oladi. Bu jarayonlar innovatsion menejmentning texnologik ustuvorliklarini yaqqol namoyon etadi.

Chiqindilardan energiya ishlab chiqarish texnologiyalari bugungi kunda ekologik muammolarni hal etishning muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. Qattiq chiqindilardan biogaz olish yoki yoqish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu yondashuv korxonalarning iqtisodiy mustaqilligini oshiradi va energiya bozorida qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari esa sohada investitsiyalarni jalb etishning samarali vositasi bo'lib, innovatsion loyihalarning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Xodimlar malakasini oshirish va aholining jarayonga jalb qilinishi innovatsion menejmentning ijtimoiy jihatlarini kuchaytiradi. Malakali xodimlar yangi texnologiyalarni tezroq o'zlashtiradi, jarayon samaradorligini oshiradi. Aholi esa chiqindilarni to'g'ri saralash orqali bevosita ishtirokchi sifatida jarayonga qo'shiladi. Rag'batlantirish mexanizmlari, bonus tizimlari va ijtimoiy kampaniyalar orqali fuqarolarda mas'uliyatli munosabatni shakllantirish mumkin.

Marketing strategiyalarining joriy etilishi va ekologik standartlarning qo'llanilishi korxonalarga nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro maydonda ham muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi. Qayta ishlangan mahsulotlarni eksport qilish, ekologik toza brend sifatida tanilish korxonalarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Logistika tizimini optimallashtirish esa moddiy va vaqt xarajatlarini kamaytirib, jarayon samaradorligini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, qattiq chiqindilarni qayta ishlash korxonalarida innovatsion menejmentning o'rni va ahamiyatini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu jarayon ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy sharoitda chiqindilarni oddiy yig'ib tashlash yoki ko'mib qo'yish amaliyoti hech qanday ijobiy natija bermasligi, aksincha, atrof-muhitga katta zarar yetkazishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Shu sababli chiqindilarni qayta ishlash jarayoniga innovatsion yondashuvlarni keng tatbiq etish, korxonalarda yangi texnologiyalarni joriy qilish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Innovatsion menejment yordamida chiqindilar iqtisodiyot uchun muqobil resursga aylanishi, ishlab chiqarishda qo'shimcha qiymat yaratishi va ekologik xavfsizlikni ta'minlashi mumkin.

O'zbekistonda ushbu sohada katta imkoniyatlar mavjud bo'lib, ulardan yanada kengroq foydalanish istiqbollari mavjud. Mamlakatda chiqindilar hajmining ortib borayotgani va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish zarurati innovatsion boshqaruv yechimlarini joriy etish uchun yangi turtki bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish, chiqindilarni qayta ishlash jarayonini raqamlashtirish hamda energiya tejankor va ekologik xavfsiz usullarni keng joriy qilish katta metodik ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, "nol chiqindi" konsepsiyasi va doiraviy iqtisodiyot tamoyillarini milliy amaliyotga bosqichma-bosqich integratsiya qilish chiqindilarni qayta ishlash samaradorligini barqaror o'sish yo'nalishida sezilarli oshirishi kutilmoqda.

Bu sohada muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun davlat siyosati va xususiy sektor tashabbuslari o'zaro uyg'unlashishi muhim. Davlat tomonidan soliq imtiyozlari, subsidiyalar, grantlar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali korxonalar qo'llab-quvvatlansa, chiqindilarni qayta ishlash sohasiga investitsiyalar oqimi ortadi. Bu esa yangi korxonalar tashkil etish, mavjudlarini modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi. Xorijiy tajribani o'rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu orqali ilg'or texnologiyalarni joriy etish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari bilan ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish mumkin.

Taklif sifatida, birinchidan, chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha innovatsion markazlar va ilmiy laboratoriyalar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, korxonalar faoliyatida klaster tizimini rivojlantirish — ya'ni turli soha va korxonalarni yagona zanjirga birlashtirish orqali samaradorlikni oshirish mumkin. Uchinchidan, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish va chiqindilarni manbada saralash tizimini keng joriy etish korxonalar faoliyatini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Umuman olganda, qattiq chiqindilarni qayta ishlash korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish va takomillashtirish O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasida alohida o'rin egallashi lozim. Bu nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlar, qo'shimcha ish o'rinlari va eksport salohiyatini



shakllantiradi. Kelgusida ushbu sohada olib boriladigan ilmiy izlanishlar va amaliy tashabbuslar innovatsion boshqaruvni yanada takomillashtirish, chiqindilarni resursga aylantirish hamda ekologik muammolarni bartaraf etishda muhim ilmiy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Madaminov X.F., Saidova S.A. Qattiq maishiy chiqindilar // Central Asian Journal of Education and Innovation. Volume 2, Issue 6, Part 3. June 2023.
2. Axmedov Sh.U. O'zbekistonda qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashning huquqiy asoslari // Экономика и социум. №1(128)-2. 2025. С. 78-81
3. Ahmedov S.M., Abdunazarov Sh.O', Xudoynazarov S.J. Plastik chiqindilarni qayta ishlash // Scientific Journal of Construction and Education. ISSN 2181-3779, Volume 4, Issue 1. 2025. С. 255-260.
4. Yusupov U.S., Usmankulov O.N., Ergashev M.A., Mamaisakova Z.B. Texnologiya chiqindilarni gidrometallurgiya usulida qayta ishlash texnologiyasi // Scientific Journal of "Sanoatda raqamli texnologiyalar" (Digital Technologies in Industry), Volume 3, № 2, 2025.
5. Пальгунов П.П., Сумароков М.В. Утилизация промышленных отходов: учебник для вузов. М.: Стройиздат, 2009. 254 с.
6. Баширов В.Д., Сагитов Р.Ф., Антимонов С.В., Левин Е.В., Алямов И.Д., Гулак М.З. Инновационные технологии в области комплексной переработки ТБО // Агроинженерия. 2023. № 2 (15). С. 9–11.
7. Савченко Г.Э. Механизм и инструменты инновационного управления предприятиями по экологически безопасной утилизации твердых отходов: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук: 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством. – Москва, 2013. 24 б.
8. Eddine D.B., Nadjoua H. The Role of Innovation in Waste Management // Journal of Economics and Sustainable Development. Volume 08, No. 13. – 2025.
9. <https://www.ecohubmap.com> – ekologiya bo'yicha biznes va tashkilotlarni ulash veb-sayti
10. Khujamurodov, A. (2020). Fond birjasini rivojlantirishning xitoy tajribasi. Архив научных исследований, 35.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>